



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 11-noyabr, shanba,
134 (23.853)-son

**KUN
HIKMATI**
Erisholmagan
narsangiz
siz uchun
marradir

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

ITALIYA PREZIDENTI SAMARQANDGA KELDI

Mamlakatimizda rasmiy tashrif bilan bo'lib turgan Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarella va uning qizi Laura Mattarella 10-noyabr kuni Samarqandga keldi.

Samarqand xalqaro aeroportida yugori martabali mehmonlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Raisi T.Norboeva hamda viloyat hokimi E.Turdimov kutib oldi.

Italiya Prezidenti bugun Samarqanddagisi tarixiy-madanly yodgorliklar bilan tanishishi ko'nda tutilgan.

Ekilgan ko'chatning parvarishi muhim

Respublikamizning barcha hududlarida 25-oktabrdan boshlab "Yashil makon" umummiliy loyihi doirasida kuzgi ko'chat ekish tadbirlari o'tkazilmoqda. 1-dekabrgacha viloyatimizda 7 million tup ko'chat ekish rejalashtirilgan. Tadbir asnosida tashkil etilgan viloyat shtabidan olingen ma'lumotlarga ko'ra, viloyat bo'yicha kuniga 122 ming tupdan ortiq, hozirgacha 1,7 million tup ko'chat ekilgan.

Ko'chatlar asosan fermer xo'jaliklari, klas-terlarning dala chetlalaridagi ihota maydonlar, o'rmon fondi yerlari, avtomobil va temiryo'i, daryo, kanal, ariq-zov bo'yulari, ta'lim, tibbiyot muassasalarini tasarrufidagi bo'sh maydonlarda ekilmoqda. Shuningdek, yangi bog'lar, uzumzor, tutzorlar yaratish uchun 2 million 400 ming, mahallalar va aholi tomorgalarida 1 million tup ko'chat ekish ishlari ham olib borilmoqda.

"Yashil makon" umummiliy dasturini amalga oshirish borasida viloyat hokimi mas'ullar ishtirokida videoselektor shaklida o'tkazgan yig'ilishiда dasturni amalga oshirish jarayoni muhokama etildi.

- Bunda avvalo, yer ajratish va tayyorlash, sug'orish tizimini yo'iga qo'yish, ko'chat xarid qilishni moliyalashtirishga e'tibor qaratish lozim, - dedi E.Turdimov. - Yuqoridagi jaronlarni amalga oshirsak, ekilgan ko'chatlar qurib qolmasdan, ko'kartirib olishga erishamiz. Lekin afsuski, ayrim mas'ullar tezkorlik bilan hisobot berib, ekilgan ko'chatlarni parvarishlashga e'tibor qaratmagan. Ko'chatni ekish emas, uni undirib olish muhim.

O'zbekiston karate (WKF) assotsiatsiyasining hududiy bo'limi faoliyat boshlaydi

Joriy yilning 3-noyabr kuni davlatimiz rahbarining "Karate (WKF) sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qaror ga ko'ra, Yoshlar siyosati va sport vazirligi tizimida O'zbekiston karateni rivojlantirish markazi tashkil etiladi. Mazkur markaz barcha yosh toifalari bo'yicha terma jamoalarning o'quv-mashg'ulot yig'inlarini o'tkazish uchun asosiy sport bazasi hisoblanadi.

- Qaror bilan O'zbekiston karate milliy federatsiyasi O'zbekiston karate (WKF) assotsiatsiyasi etib qayta tashkil qilinib, joylarda uning hududiy bo'limlari faoliyati yo'iga qo'yiladi, - deydi viloyat yoshlar siyosati va sport boshqarma-

Zarafshon

"BIZ BIR BO'LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!"

Kecha shu shior ostida respublikamiz miqyosida o'tkazilgan ma'naviyat marafoni viloyatimizda ham yuksak saviyada tashkil etildi. Tadbirlar markazi harbiy okrug ma'naviyat va ma'rifikat markazida harbiylarning jangovar chiqishlari, sport o'yinlari, milliy qadriyatlar ko'rgazmasi bilan boshlandi.



"Biz bir bo'lsak - yagona xalqmiz, birlashsak - Vatanmiz!"

shior ostida

Ma'naviyat Marafoni

Marafoning tantanali ochilishiga bag'ishlangan tadbirda viloyat hokimining o'rinosi Xurshid Ochilov, Oliy Majlis Senati a'zosi Farmon Toshev so'zga chiqib, tadbirning ahamiyati haqidagi o'tkalid va ma'naviyat rivoji yo'lida barchani faol bo'lishga chorladi.

- Bu tadbirlar biz kabi yoshlarning ma'nivi kamolotida alohida o'rinni tutadi, - deydi oddiy askar Bahrom Xo'jayorov. - Shonli tariximiz, milliy urf-odatlarimiz, an'analarimizni o'zida aks ettirgan ko'rgazmalar, tanlov va musobaqalar Vatanga muhabbatimizni yanada oshiradi.

Marafon doirasida "Baxtli bolalik", "Kitob - bilim bulog'i", "Kasb-hunar olimpiadasi", "Kasbim - faxrim", "Yashil kelajak", kabi mavzularda aksiya, tanlovlardan, kitob yarmarkalari, adabiy kechalar, sport musobaqalari o'tkazildi.

Kun bo'yidavom etgan tadbirlar yakunida faol ishtirokchilar tashkilotchilar tomonidan taqdirlandi, shuningdek, taniqli san'atkorlar ishtirokida gala-konsert namoyish etildi.

Bu kabi tadbirlar viloyatning barcha shahar va tumanlarda o'tkazildi.

To'Iqin SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

↓ 11-noyabr - O'zbekiston kasaba uyushmalari kuni

JAMOAT TASHKILOTIDAN XALQ TASHKILOTIGA

Viloyatimiz aholisining yarim milliondan ortig'i bevosita kasaba uyushmalari a'zolari sanaladi. Jamoat tashkiloti bilan hamkorlik qilib kelayotgan tashkilotlar soni kundan kunga ko'paymoqda. Mehnatkashlarning huquqlari va manfaatlari amalda bo'lgan hududiy kelishuv va jamaoa shartnomalarida aks ettirilgan. Jamaoa shartnomalarida muttasil tarzak qoshimcha imtiroz va kafolatlar bilan boyitib borilmoqda. Bunday uch-to'rt yil muqaddam jamaoa shartnomalariga kiritilgan tadbirlar soni o'ttacha 80-92 bandni qamrab olgan bo'lsa, hozir 115-120 bandni tashkil etmoqda. Demoqchi bo'lganim, ish beruvchilarning xodimlar ish sharoitini yaxshilashga bo'lgan e'tibori oshib bormoqda.

(Davomi 2-sahifada) >>>



"TEZ YORDAM" NING HUDUDIY FILIALIGA 20 TA YANGI AVTOMASHINA TOPSHIRILDI

Tibbiyot xodimlari kuni arafasida Respublika tez tibbiy yordam ilmiy markazi Samarcand filiali stansiyalari 20 dona "A" toifali "Volkswagen Caddy" tez tibbiy yordam avtomashinalari topshirildi.

Mazkur zamonavoya avtovtransport vositalari sog'liqni saqlash vazirligi hamda "Jizzakh Auto" o'ttasida imzolangan shartnomaga muvoqqa keltirilgan. Avtomashinalarini "103" xizmati stansiyalari mas'ullari qabul qilib oldi.

- Bugungi kunda viloyatimizda "103" xizmatidagi eskrig'an avtoulovlardan bosqichma-bosqich zamonaviyariga almashtirilmoqda, - dedi viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi S.Zayniyev.

- Oxirgi besh yilda viloyatda 100 ta tez yordam mashinasi yangisiga almashtirildi. Yil yakuniga qadar tez tibbiy yordam stansiyalariga yana 30 ta ana shunday transport vositalari keltirilishi rejalashtirilgan.

↓ Prezident qaroriga ko'ra

esa "Kids karate" (kids karate) loyihasi ishga tushiriladi.

2024-yil 1-martgacha viloyatda karate bilan shug'ullanayotgan barcha sportchilar, shuningdek, musobaqalarda qatnashuvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar ERPsport.uz platformasida to'liq raqamlashtiriladi.

Viloyatda parakarateni rivojlantirish uchun O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi tuzilmasida parakarate bo'limi tashkil etiladi.

Viloyatda parakarateni rivojlantirish uchun tuman (shahar)lardagi sport maktablarida parakarate sport turi bo'limlari tashkil etiladi va trener-o'qituvchilarning malakasini oshirish maqsadida tegishli oly o'quv yurtlari bilan hamkorlikda ishlash bo'yicha rejalar ishlab chiqiladi. Aholi barcha qatlaming karate bilan shug'ullanishi uchun viloyat hududlarida "Karate hamma uchun" dasturi amalga oshiriladi. Bog'chalarda

parakarateni rivojlantirish uchun O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi tuzilmasida parakarate bo'limi tashkil etiladi.

Viloyatda parakarateni rivojlantirish uchun tuman (shahar)lardagi sport maktablarida parakarate sport turi bo'limlari tashkil etiladi va trener-o'qituvchilarning malakasini oshirish maqsadida tegishli oly o'quv yurtlari bilan hamkorlikda ishlash bo'yicha rejalar ishlab chiqiladi. Aholi barcha qatlaming karate bilan shug'ullanishi uchun viloyat hududlarida "Karate hamma uchun" dasturi amalga oshiriladi. Bog'chalarda

Tibbiyot bilan bog'liq kichik masalaning o'zi yo'q. Ilm-fan qanchalik taraqqiy etmasin, nanoteknologiyalar hayotimizga kirib kelmasin, arzimas miqdorga ega bitta dori insonni o'llim holatiga olib keliши mumkin. Yoki aksincha, o'z vaqtida tanaga yuborilmagan dori bemorning hayotini keskin o'zgartirib yuborish hech gap emas. Mana shunday jarayon ichida yashaydi shifokorlar, tibbiyot xodimlari. Xo'sh, katta bir viloyatning salomatlik pulsini doimiy ravishda me'yorida ushlab turish qanchalik murakkab? Bunday mas'uliyatlari jarayoni nazorat qilib borish-chi? Uning murakkabliklari nimada? Shu va boshqa savollar bilan viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi Suhrob Zayniyevga murojaat etdi.

SAMARQANDNING SALOMATLIK PULSI

- Albatta, murakkab jarayon bu, - deydi Suhrob Zayniyev savollarimizga javob berishga chog'lanan ekan. - Tabiiyki, tibbiyot tizimida ishlaydigan barcha xodimlar bir xil saviyada, yugori bilimga ega deb o'yashning o'zi aqliga sig'maydi. Bugun viloyatdagagi 338 ta tibbiyot muassasasida 8040 nafr shifokor hamda 29732 nafr hamshira faoliyat olib bormoqda. Doimiy ravishda, zamон talablariga ko'ra ularning malakasi oshirib kelinadi. Ammo bular nisbiy tushuncha. Tibbiyotda boshqa sohalardan farqli ravishda bemorlarning tuzalishi bilan bog'liq ko'satikchilari yugori bo'lgan shifokorlar aholi orasida reytingi oshib borishi bilan qadr topadi. Ya'ni, soddaroq aytadigan bo'lsak, har qanday imtihonu attestatsiyalardan ko'ra xalqning bahosi o'sha shifokor yoki tibbiyot xodimining saviyasini, bilim darajasini ko'satib beradi.

- Baho haqida to'xtaldingiz. Yaqinda saytimizda "Keyingi yillarda o'z hududigizdagi tibbiyot muassasalarida sizga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatda o'zgarishlar bo'lganini sezdingizmi, degan savolga 22 foiz ishtirokchi "ha, yaxshi, ijobji o'zgarishlar bor", degan javobda to'xtaldi.

Ammo mazkur so'rov ishtirokchilarining 32 foizi "O'zgarishlar bor, lekin yetarli darajada emas", degan javobda to'xtalgan bo'lsa, 38 foizi "o'zgarishlarni sezmadim", degan fikr bildirgan. Ya'ni, so'ralganlarning ko'proq foizi bu ishlarning barchasi yetarli emas, deb hisoblamoda.

- Haqiqatda tibbiyotda keyingi ikki yil ichida katta sakrash bo'ldi, deb aytilish mumkin. Mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan viloyatimiz klinikalarida shu paytgacha bo'lmagan sharoitlar yaratildi, operatsiyalar amalga oshirildi. Respublika budjeti mablag'i hisobidan 17 turdagidagi asbob-uskunalar xarid qilinib, immunogenetik laboratoriya tashkil etildi.

Respublika, viloyat va tuman shifoxonalari hamda ixtisoslashtirilgan markazlar va ularning hududiy filiallari imtizozi toifaga mansub 10 ming nafardan ortiq bemor davolandi. 160 turdagidagi yugori texnologik jarroqlik amaliyotlari (davolash usullari) tatlbiq qilinib, 5 mingga yaqin bemorda yugori texnologiyali amaliyotlar bajarildi. 52 nafr bemorda buyruk, bir nafrada jigar transplantatsiyasi o'tkazildi.

Yugorida ta'kidlaganimday, tibbiyot sohasining ko'lami juda katta, bu masalada mayda vazifani o'zi yo'q, hammasi bir-birdan muhimroq. Sharoitlar yugori darajada bo'lsa-yu, ammo shifokorlar kasallikni to'g'ri aniqlasa-yu, bemorni tezroq hamda sifatliroq davolashi uchun yetarli uskunlarga ega bo'limsa ham aholi salomatligini asrashda muhim mezonlarga putur yetadi. Shu nuqtai nazardan butun tizimimukammal darajada ushlab turishning o'ziga xos qiyinchiliklari bor, albatta, bundan ko'z yumolmaymiz.

(Davomi 2-sahifada) >>>



SAMARQANDNING SALOMATLIK PULSI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Qolaversa, yana bir tomoni bor. Deylik, u yoki bu inson shifokorga domiy emas, necha yilda bir ishi tushadi. Yoki bitta shifoxonada shifo topib, shu bilan unga umuman boshqa bormasligi mumkin. Ya'ni, u yerdagi ahvoldan boshqa xabardor bo'lmaydi va eski tasavvuri bilan xulosa qiladi.

Bugun yana takror bo'lsa ham shifokor sifatida aytamani, necha yillardan beri orzu qilgan sharoitlarimiz yaratilyapti. Nafaqat bemoni davolashda, balki kasallikning oldini olishda ham tizimli ishlari yo'lg'a qo'yildi, ommaviy tibbiy ko'rniklar natijasida qanchadan-qancha kasalliklarning oldi olinib, bu aholining ijtimoiy holatiga ham ijobi y'a sir ko'rsatmoqda.

- Ijtimoiy tarmoqlardagi izohlarda "tez tibbiy yordamda yaxshi o'zgarishlar kuzatildi, ammo boshqa yo'naliishlarda hamon korrupsiya mavjud, bepul dorilar deyarli yo'q", degan fikrlar ham bildirildi.

- Tez tibbiy yordam tizimida sohaning barcha yo'naliishlардан ko'ra ko'proq imkoniyatlar yaratildi hamda e'tirof etish joiz, eng samarali ishlash tizimi yo'lg'a qo'yildi. Bundan atigi to'rt-besh yil oldin tumanda yashovchilar uchun tez tibbiy yordam chaqirish orzu edi, tizim juda og'ir ahvolga tushib qolgandi. Bugun qaysi hududda bo'lmang, bu xizmatdan foydalanish mumkin, tibbiy yordam mashinasi 10 daqiqagacha vaqt ichida yetib boryapti.



Bugun jamoatchilik nazoratining oshgani, ijtimoiy tarmoqlarda aholining o'z fikrini bildirayotgani, ochiqlik tizimi bu sohada korrupsiyaning oldini olishda muhim ahamiyatga ega bo'lyapti. Garchi ijtimoiy tarmoqlarga chiqmasa-da, joylardagi tibbiyot muassasalarining ko'rinarli joyiga ilib qo'yilgan ishonch telefonlariga qo'ng'iroqlar ham soha xodimlarini hushyor torttirgan. Jamoatchilik nazoratining shu tempda ishlashi yaqin yillarda bu illatning barham topishiga turki bo'ladi, deb umid qilamiz.

Bepul dorilar masalasi haqda to'xtalsak. Bemorlarning bepul dori-darmon bilan ta'minlanishi ko'nda tutilgan tibbiyot muassasalarini bor. Ularning ro'yxati Sog'liqni saqlash vazirligi, qolaversa, boshqarmamiz rasmiy saytlarida ham berilgan. Birlamchi tibbiyot esa barcha uchun bepul. Birlamchi tibbiyot tizimiga ajratilayotgan dorি-darmonlarning ham ma'lum ro'yxatlari bor va ular tegishli tartibda tarqatiladi.

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamaiga imtiyozi davolanish tizimi aholiga yanada yaqin bo'lib bormoqda. Misollar orqali bu fikrni isbotlab bersam. Shu yilning o'zida ikkita tumanda (Nurobod va Ishtixon) 170 nafr fuqaroning davolanishi uchun mahalliy budgetdan 1,9 milliard so'm mablag' ajratildi. Jumladan, Nurobod tumanda 113 nafr bemon uchun 1 milliard 70 million so'm mablag' yo'naltirildi. Shundan 74 ta bemorda yuqori texnologik operatsiyalar o'tkazildi.

Sug'urta jamg'armasi mablag'lar hisobidan joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 6 ta muassasada (kardiologiya, travmatologiya, ko'z mikroxiurigiyasi, SamDTU klinikasi, viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi, viloyat bolarlar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi) 40 milliard so'm mablag' evaziga 5000 nafr bemon davolandı.

Yuqorida keltirilgan mablag'lar ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining bepul davolanishi, yuqori texnologik operatsiyalarni amalga oshirgan holda davolanishi uchun imkon berdi.

Umuman, sohadagi ishlar faqat shu raqamlardangina iborat emas. Ammo eng muhim, birlamchi tibbiyotdan tortib, murakkab operatsiyalar bajariladigan zamonaviy shifoxonalarning tobora aholiga yaqinlashib kelayotganidir. Poytaxt, xorija borish ehtiyoji yildan-yilga kamayib bormoqda, xorij tajribasi viloyatlarda qo'llanimoqda. O'yaymanki, bu jarayon aholi va tibbiyotning o'zaro ishonchi muhitida yanada yuqori natijalarga olib keladi.

Gulruk MO'MINOVА suhbatlashdi.

YASHIRIN SIL KASALLIGINI ERTA ANIQLAYDIGAN ANALIZATOR ISHGA TUSHIRILDI

Viloyat ftiziatriya va pulmonologiya markazi 590 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, hozirda 400 nafardan ziyod bemon davolanyapti. Markazda olti yildan buyon mintaqalararo zamonaviy bakteriologik laboratoriya faoliyat ko'rsatmoqda.

Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi Suhrob Zayniyev ishtirokida viloyat ftiziatriya va pulmonologiya markazining faoliyat, markaz bakteriologik laboratoriysi va bemonlarga yaratilgan sharoitlar o'rganildi.

Markaz direktori Sherli Sherquloving ta'kidlashicha, muassasaga sil kasalligini erta tashxislash va davolash uchun 10 ta XDR Gen Expert zamonaviy apparati olib kelingan. Bu apparat molekulary genetik tekshiruv usuli bilan avtomatik ravishda DNKnii ajratib, sil tayoqchasi bor-yo'qligini 70 minut davomida aniqlab beradi. Bunday apparatlar viloyat



ftiziatriya va pulmonologiya markazida ikkita, Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari hamda Toyloq, Urgut, Bulung'ur, Ishtixon, Paxtachi, Oqdaryo tumanlariga bittdan berilgan.

Yaqinda markazning bakteriologik laboratoriysiga yangi turdag'i diagnostik laboratoriyaliga - kvantiferon test analizatori ham olib

(Davomi.
Boshlanishi 1-sahifada).

Mavzudan chekinmagan holda bir misol. Bundan uch yil ilgari har bir ishlovchi mehnati muhofazalash uchun ish beruvchilar tomonidan o'rtacha 600-650 ming so'm miqdoridagi mablag' sarflanardi. Mehnatga munosib munosabatning shakllanishi, ish beruvchilar bilan olib borilgan tushuntirish ishlari natijasida joriy yilda har bir xodimga ana shu yo'naliishda sarflangan mablag' miqdori salkam uch million so'mga yetkazildi.

Mehnat jabhasida alohida imtiyozlari bilan ta'minlanishi lozim bo'lgan ishlovchilar ham bor. Jumladan, surli shohalarda mehnat qiliyotgan 5,5 ming nafr ayolning yarmidan ortig'ining yosh bolalari bor.

Kasaba uyushmalari va ish beruvchilar kelishuviga muvofig, yosh bolali xotin-qizlar uchun bir qator yengilliklar ishlab chiqildi. Jumladan, ish vaqtini haq to'langan holda ma'lum soatlarga qisqartirish, tungi smanalarga jaib etmaslik va boshqa bir qator afzalliklar jamaoa shartnomalari orqali amaliyotda qo'llanib kelinoqda. Bundan tashqari, korxona va tashkilotlarda ishlayotgan mehnat nogironlari ham bir qator imtiyozlardan foydalananmoqda.

Mehnatga munosabat, xavfsiz va kafolatlangan ish o'rinnari yaratilishi kasaba uyushmalaring muttasil nazoratida bo'lib kelmoqda. O'tgan davrda mutaxassislarimiz tomonidan mehnat sharoitlari o'rganilib, joylarda aniqlangan kamchiliklar yuzasidan mutasaddilarga 500 ga yaqin taqdimnomma kiritildi. Mavjud

Hayotda yoxud mehnat jabhasida biror bi muammoga duch kelgan, uni bartaraf etishga ojiz bo'lgan kishigina murojaatchiga aylanadi. Turli mavzularda birlashma kengashining yuridik bo'limiga keyingi besh yil-



Jamoat tashkilotidan xalq tashkilotiga

vaziyatni hisobga olgan holda kasaba uyushmalari qoshida mehnat muhofazasi borasida qibiliyatlari mustahkamlashga yo'naltirilgan "Kasaba ziyo" o'quv markazi faoliyatini yo'lg'a qo'yidik. Malakali mutaxassislar tomonidan korxona va tashkilotlarning mehnat muhofazasi mutaxassislar, shu sohaga daxldor kishilar qisqa o'quv kurslari amaliyot o'tashayotir. Ana shu yo'naliishdagi ishlarimiz natijasi o'laroq jamaotchilik asosida saylangan 3,5 ming nafr mehnat muhofazasi bo'yicha vakillarning bu boradagi bilimlari mustahkamlandi.

Hayotda yoxud mehnat jabhasida biror bi muammoga duch kelgan, uni bartaraf etishga ojiz bo'lgan kishigina murojaatchiga aylanadi. Turli mavzularda birlashma kengashining yuridik bo'limiga keyingi besh yil-

da 1089 ta murojaat kelib tushgan. Mehnatkashlarning buzilgan huquqlarini tiklash, manfaatlarini himoyalashni birinchi galda ish beruvchilar bilan mulqot asosida hal etishga intildik. Fuqarolar bilan aloqani mustahkamlash, ularning huquqiy muammolarini hal etishga ko'maklashish maqsadida kasaba uyushmalarining "Yuridik klinika" va "Ishonch telefonlari" faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Shuningdek, tizimda axborot almasinuvini yashkilash, zamonaviy axborot teknologiyalarini keng joriy etish, elektron xizmatlarning interaktivlik daramasini oshirish choralar ko'rileyti.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish, turizm yo'naliishlari uchun ishlashni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kasaba uyushma-

lari tizimida "O'zbekiston bo'yib sayohat qil" dasturi doirasida jamoa shartnomalari va tarmoq kelishuvlariga kiritish orqali joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 9500 nafr yurdoshimizning sayohatlarini tashkil etildi.

Bu yo'naliishdagi ishlarni tizimli davom ettirish maqsadida birlashma qoshida "Kasaba Samarqand" turistik agentligini tashkil etganimiz. Tashkilot tomonidan har yili 15 ming nafr-gacha fuqarolarimizning ichki turizm yo'naliishidagi safarlarini tashkil etilmogda.

Kasaba uyushma budjeti va ijtimoiy sug'urta budjeti mablag'lar hisobidan viloyatimizdagi tashkilot hamda korxonalarda faoliyat olib borayotgan 4236 nafr ishchi-xodim va ularning oila a'zolari respublikamizning turli hududlarida sanatoriyalarda dam olib, o'z sog'ligini tikladi. Buning uchun 12 milliard 234 million ming so'm sarflandi.

O'zbekiston kasaba uyushmalar federatsiyasi dasturi asosida 164 nafr mehnat va urush faxriyalar, bayalminalchil jangchilar, chernobilchilar, olis va chekka hududlarda yashovchi yosh oila vakillari hamda ijtimoiy himoya muhtoj oilalarning ishlovchi valiklariga yo'llanmalar bepul berildi.

Bir so'z bilan aytganda, jamoat tashkiloti maqomini olgan kasaba uyushmalari chin ma'no-da xalq tashkiloti maqomiga erishmoqda. Fuqarolarimizning muammolarini hal etishda ularga yelkadosh bo'lib kelmoqda.

Suhrob RAFIQOV,
O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashi raisi.

Rohila Shamsiyeva 40 yildan beri Oqdaryo tumanining Oytamg'ali mahallasi aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatib keladi. U keyingi yillarda tibbiyot sohasiga qaratilayotgan e'tibordan mammunligini, bir paytalar shifokor bo'la turib, ko'zlar mo'litrab turgan bemon bolajonlarga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatilganligini afsus bilan xotirlaydi.

Qo'limda bemon jon berganda

shifokor bo'lganimdan afsuslanganman



- Bugun tibbiyot muassasalarida yaratilgan imkoniyatlar bilan avvalgilarini solishtirib bo'lmaydi, - deydi Rohila Shamsiyeva. - Birgina misol, tumanimizning eng olis hududida joylashgan, men rahbarlik qilayotgan "Oytamg'ali" oilaviy shifokorlik punktidagi ham aholiga birlamchi tibbiy xizmat ko'rsatish uchun barsha sharoit bor. Qo'shni mahallada tez tibbiy yordam shoxobchasi mavjud. Ehtiyoj sezilsa, 5 daqiqa yetib kelyapti.

Avvallari tez tibbiy yordam mashinasi yo'liga saatlab ko'z tikkan kunlari bo'lgan. Bir bemon o'rlashib qolsa, uni markaziy shifoxonaga yetkazish uchun ulov juda qiyin edi. Hech esimdan chiqmaydi, bir ayol laringit kasalligiga chalangan farzandini og'ir ahvolda qabulimga olib keldi. Bor imkoniyatimni ishga soldim, ammo ahvoli og'irligi uchun uni markaziy shifoxonaga olib bormasak bo'lmadi. Qo'ng'iroq qilib chaqirilgan tez yordam mashinasidan darak bo'lavermagach, uni yo'lda duch kelgan ulov bilan markazga olib ketdik. Ming afsuski, u yo'lda, qo'limda jon berdi. Shunda shifokor bo'la turib, uni asrab qololmaganidan afsuslanganman. O'sha paytda bugungidek imkoniyatlar bo'lganida, u bola tirk qolishi shubhasiz edi.

Ha, bugun olis hududa joylashgan oilaviy shifokorlik punkti zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar, laboratoriya jihozlari bilan ta'minlangan. Punktda har birida bir nafrdan umumi amaliyot hamshirasi, patronaj va doya bo'lgan 3 ta brigada mahallaning 6200 nafr aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatib kelyapti.

- O'zim kechaya kunduz, dam olish kunlarida ham murojaat qiluvchi bemonlar uchun ishda bo'laman, - deydi Rohila opa. - Sababi, hovlim punkt hovlisiga tutashib ketgan. Mahalladoshlarimiga jamoamiz bilan qo'limizdan kelgancha xizmat ko'sratotganimizdan, sarsongar-chiliklarning oldi olingandan mammunzad.

Mahalladagi mavjud 5 ta qishloqdan eng olisi - Piloda mazkur tibbiy muassasasiga qarashli kichik tibbiy punkti ham tashkil etildi. Bu qishloq aholisining og'irini engil, uzog'in yanada yaqin qildi.

To'Iqin SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

kelingan bo'lib, bu apparat orqali qonda yashirin sil kasalligini erta aniqlash mumkin. E'tiborlisi, ushbu analizator respublikada birinchilardan bo'lib viloyatimizda ishga tushirildi.

- Ushbu apparat Germaniya taraqqiyot banki tamonidan "Tuberkulyoz 5" loyihasi asosida 238,6 million so'mlik grant mablag'lar hisobidan olingan, - deydi Sh.Sherqulov. - Kvantiferon test analizatori latent tuberkulyoz infeksiyasini erta aniqlash maqsadida qon zardobidan immunoferment tahlili o'tkaziladi. Kvantiferon test apparati venadan olingan 5 milligramm qonda latent tuberkulyozni, ya'ni yashirin silni aniqlashga mo'ljallangan diagnostik apparatdir. Analizator tomonidan olingan tahlillar javobi uch kunda chiqadi. Apparat qon tarkibida gamma interferon fermentini aniqlaydi. Ushbu gamma interferon qonda normadan yuqori bo'lsa, organizmda yashirin sil borligi belgisi bo'ladi.

Kvantiferon apparati bilan asosan tuberkulyoz bilan kasallangan xavf guruhidagi va OIV bilan kasallangan bemonlar hamda tez-tez kasallanuvchi bolalar tekshiriladi. Shuningdek, ushbu apparat yordamida IFA analizatorlari tomonidan o'tkaziladigan barcha turdag'i tahlillarni o'tkazish mumkin.

O'rganish davomida markazning kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati ko'zdan kechirilib, "Yashil makon" loyihasi doirasida tashkil etilgan "Shifokorlar bog'i"da daraxt ko'chatlari ekildi.

F.RO'ZIBOYEV.

 "Zarafshon" gazetasi 110 yoshda

MENING DORILFUNUNIM

"Zarafshon" men uchun umrim mazmuni, chinakam hayot dorilfununi bo'lgan. Jurnalist sifatida shu muqaddas dargohda o'ttiz yilga yaqin faoliyat yuritdim. Anyi paytda 80 yoshda ham o'zim dolzarb deb bilgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy mavzularda baholi qudrat qalam tebratib kelyapman.

Gazetaga ishga qabul qilinishim qiziq bo'lgan. "Past Darg'om haqidagi" gazetasida mas'ul kotib bo'lib ishlardim. 1986-yil may oyida mehnat ta'tiliga chiqdim. "Zarafshon" ga bir turkum she'riy mashqlarimni yuborgandim. Shaharga aylangani kelib, "she'r larimning taqdiri nima bo'ldi ekan", deb tahririyatga kirdim. Targ'ibot bo'limi mudiri Aziz Yo'idoshev bilan suhbatlashib o'tirib, gap orasida istihola bilan she'r yuborganimni aytib, "chiqarmikan?", dedim.

- Hozir bilamiz, - dedi Aziz o'rnidan turib. - Qani, bu yoqqa yuring!

Qo'shni xonaga o'tdik. Bir kishi mashinkada nimanidir yozayotgan ekan. O'rnidan turib, bizni iliq kutib oldi.

- Madaniyat bo'limi mudiri Erkin aka Azamatov, - dedi Aziz.

So'ng meni tanishtirdi:

- Pastdarg'omlik hamkasbimiz Tog'aymurod aka Shomurodov. She'r yuborgan ekan, taqdirini bilishga kelibdi.

- Ey, shunaqami? - Erkin aka stol tortmasidagi bir taxlam qog'ozlar orasidan she'r larimni oldi. - Mana, tayyorlab qo'yganman, yaqinda "Adabiyot sahifasi"da beramiz.

Madaniyat bo'limidan xursand bo'lib chiqar ekanmiz, Aziz dabdurusdan "Ke-ling, biz bilan ishlanmaysizmi?" deb qoldi.

Bu haqida o'y lab ko'rmagan, xayolimga ham kelmagan edi.

- Qo'ysangiz-chi, bu dargohda ishlash osonmas, eplay olarmikanman, - dedim kutilmagan taklifidan hayajonlanib.

- Eplaysiz! - dedi Aziz jiddiy. - Yuring, bosh muharrir bilan tanishasiz.

U meni bosh muharrir Mardi Nuriddinov huzuriga boshlab kirdi.

- Ha, maqlolarini o'qiganman, - dedi Mardi aka. - Mayli, topshiriq berib, sinab ko'ringlar, ma'qul bo'lsa, ishga qabul qilamiz...

Tahririyatga she'rini "yo'qlab" borgan kaminaning taqdiri bunday o'zgarib ketishimi kini o'ylabdi deysiz.

Tahririyat bo'limlari topshiriqlari bo'yicha bir nechta maqlolar yozib gazetaga jo'natdim. O'sha paytda gazeta haftada 5 marta, 65000 nusxa da chop etilardi. Nafaqat viloyatda, balki respublikada o'z an'analariga ega "Zarafshon"da maqlolarini ketma-ket bosilishi menga quvонch va ilhom bag'ishlardi. Ko'p o'tmay ishga qabul qilindim.

"Zarafshon" muxbir, mas'ul kotib, bosh muharrir o'rinnbosari sifatida chorak asrdan ko'proq faoliyatini davomida Mardi Nuriddinov, Man-nop Najmuddinov, Aziz Yo'idoshev, Farmon Toshev, Sulaymon Husaynov, Adham Hayitov, Jamol Tursunov kabi ustozlar va hamkasbilar sabog'ini olib, birga ijod qilish baxtinga tuyassar bo'ldim.

Jurnalistik kash talabi va mas'uliyati tufayli mutazam o'qish-o'rganish, dunyoda, jamiyatda, odamlar hayotida ro'y be-rayotgan o'zgarishlarga xolis baho berish, ularni yoritish malakam sayqallandi.

Bu soha qomusni bilimni talab qiladi. Qismatiga jurnalist bo'lish bitilgan shaxs istaydimiyo'qmi, shu kasbga borlig'ini bag'ishlashni istasa, barcha sohalardan xabardor bo'lishi shart. Bosh-qacha aytganda, shifokor bilan bittiyot, qishloq xo'jaligi kodimi bilan agronom, akyor, rassom, musiqachi, shoir, yozuvchi, xuldas, har bir kasb egasining tilida mulqot qilolmasa, gazetonga manzur bo'ladigan maqola yozolmaydi. Men ana shunday mashaqqatli, anyi paytda yozish, fikrlash, so'z bilan ishlash zavqini bergen "Zarafshon" dan behad minnattorman.

Bugun bu ulug' dargohda chorak asrdan buyon jamoaga rahbarlik va ustozlik qilib kelayotgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Farmon Toshev boshchiligidagi G'olib Hasanov, Abg'ofur Sherxolov, Akram Haydarov, Tolib Jo'rayev, Dilmurom To'xtayev, Gulruh Mo'minova, Yoqub Marqayev, Xurshida Ernazarov, O'ktam Xudoyerberdiyev, To'iqin Sidiqov, Anvar Mustaqolov, Fazliddin Ro'ziboyev, Sulaymon Mardiye, Asqar Baratov kabi iste'doddil jurnalistlar gazeta an'analarini sharaflari bilan davom ettirmoqda.

Bir asrdan ziyod vaqt davomida ne-ne allomalarga ijod maktabi bo'lgan, odamlar ongu tafakkuriga ziyo taratib, jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shayotgan, illatlarga qarshi murosasiz kurash vositasini bo'lib kelayotgan "Zarafshon"ga, uning ijodiy jamoasiga jo'shqinlik tilayman.

Tog'aymurod SHOMURODOV.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

11-NOYABR

Qutbiddin MUHIDDINOV – (1906-1983) Ur-gut tumanida tug'ilgan. Sharqshunos, tilshunos olim. Filologiya fanlari nomzodi.

12-NOYABR

Enmark SALIHOV – (1934-2022) Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, bastakor.

15-NOYABR

Nasiba ABDULLAYEVA – 1961-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston xalq artisti.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 408 nusxada chop etildi. Buyurtma 611. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftanining seshshabi, payshanba va shanba kunlari chiqishi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LMILAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.



Gulchehra Usmonova so'zidan, nigohidan madaniyat ufurib turadigan jurnalist. U yozayotgan har bir satriga yurak qo'rini qo'shib yozmasa, yozmaydi. Suhbatlashsangiz, haqiqiy o'zbek ayoli timsolini ko'rasiz. Hatto o'zbek jurnalist ayolini, deb aytaks ham mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, voqeа, holatlarni muloyimlik bilan tushuntirsada, ammo adolatsizlik, nohaqliklarga murosasiz, keskir bir so'z bilan nuqta qo'ya oladi. Munisiga ko'ringan bu ayol o'sha topda kerakli so'z va munosabatni qanday topa oldiykan, degan xayolga borasiz. Va, darhol professionallik, o'z kasbiga sodiqlik shu bo'lsa kerak, so'zini o'z vaqtida topib ayish, aytganda ham e'tiroz qoldirmaydigan adolat tug'i bilan qalblarga quyish mahorati bu, degingiz keladi.

50 yil shu soha ortidan faqat qadr topdi. O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi G.Usmonova mehnat faoliyatini "Ishtixon ovozi" gazetasida musahhihilidan bosh muharrirlikkacha bo'lgan mashaqqatli yo'ini bosib o'tdi. Uzoq yillik samarali mehnatlarini tufayli "Mehnat shuhari" ordeniga sazovor bo'ldi, "Mo'tabar ayol" va "Mehnat faxriysi" ko'krak nishonlari bilan taqdirlandi, qator kitoblari chop etildi. Gulchehra Usmonova qutlug' yosh arafasida ham yurak qo'rini berib yozilgan ijod namunalari bilan muxlislarni xushnud etib kelmoqda.



Hikoya

indamadi.

Shu javobdan keyin Dilbar opaning yuzini yana ko'z yoshlari yuvdi. Ha, sekin bosh iring'adi, o'zini biroz tutgach, va niyomat dilini ochdi.

- O' yil bo'ldi arzimas sabab arazlashib qoldik. Ikkimiz ham gapdan qolmadik. Shushu gaplashmaymiz, yuzma-yuz kelsak ham jum o'tib ketamiz...

Muborak opa hamxonasing dardini anglagandek bo'ldi. Ona emasmi, oyqoq og'rig'i emas, dil og'rig'i bedavo dard ekaniqini his etdi. Bemor shunday damlarda o'g'li Jasurjonning yonda kelinni ko'rsa, uning ikki og'izgina shirin so'zini eshitsa, bir piyola choy tutsa, hamxonasi tezroq oyoqqa turib, sog'ayib ketadiganek tuyud.

Aslida inson borki, mehr kutib yashaydi va har qanday lazzatli taom shifobaxsh dordidan ko'ra shu afzalroq, undan bahra oladi. Muborak opaning xayolidan biror mar'a diydorlashmagani bo'lsa-da, xonadoshining kelni ketmasdi. Xuddi "onajon" degan so'zini eshitgan zahotil Dilbarxon soy'ayib ketadiganek, nighoga tabassum yoyiladigandek bo'lib ko'raveradi.

Shifokorlar anchha tetiklashib qolgan Muborak opaga uyiga ketish uchun ruxsat berishdi. Ammo ketar kuniqa qadar Dilbarxonning kelinidan darak bo'lmadi. Ikki dugona bir-birini bag'riga bosgancha xayolarishar ekan, ich-ichidan qandaydiz iztirobini his etdi. Kelinga insof, qaynonaga sog'lik tilagancha ko'ngli allaqanday xira bo'lib turganida eshikda o'g'li va kelini ko'rindi.

- Oyijon, sizni olib ketamiz....

Ular Muborak opani bag'riga olishdi. Opa hamxonasi bilan xayrlashdi. Ammo ko'nglini burchidagi xiralik sira tarqamadi.

Qisqa vaqt bir-biriga hamroh bo'lsanda, ko'ngillar tutashgan ikki dugonaringi bishodlansa, ikkinchisining ko'nglini dardli xayollar chulg'ab olgan edi. Nima xato qildim, mendan o'tdimi yoki kelinining erkaliqimi, xayolan ming tahliqilsa-da, o'zi ham tushunmas holatda edi. Balki kelini kechirish kerakmadi... Axr achchiq bilan olishib bo'limas, kechirrimi bo'lganida bunchalikka borishmasmadi... Onaning oromi yo'qolgan, o'zicha qalbida sarhisob qilardi.

Gulchehra USMONOVA.

Dard

ini, yolg'iz o'g'li shaharda turishini, qizi yaqinda farzandli bo'lganini, unga hamroh bo'lib kelolmanin suhat chog'ida aytib o'tdi.

Yomon dardni yiroq qilsin. Dilbar opa ikki-uch kun yotsa-da, hamon oyodqagi og'riq bosilay demasdi. Bu vaqtida butun vujudi bir siqimga aylanar, shunday damlarda ko'z yoshiga zo'r berardi.

Muborak opaning xonadoshiga rahmi kelar, qanyidi dard tezroq ortga chinkinsa deb itijo qilar, qo'lidan kelgancha ovutgisi kelardi. Yoningdag'i kishi dard chekib tursa, qiyin bo'larkan, ko'ngling bo'linib, diling xira tortadi. Har kuni xonadoshining choynak-piyolasini yuvur, nonushta taklif qilib, o'z vaqtida ovqatlanishga undardi. O'g'li Jasur ishshan qo'lib yonida o'tirar, kerakli dori-darmomni yetkaizar, gohida ikki qizalogni ham olib kelganida esa hamxonasi miyig'ida kulib qo'yar, nevaralarini bag'riga olganda nigohida tabassum ko'ringandek bo'lardı.

Muborak opa hamrohining qalbida qandyadir dardi borligini ilg'agandek bo'lardi-yu, shusiz ham iztirobida xonadoshiga achinar, dilidagini tiliga chiqargisi kelmasdi. Yuziga sochiq yopib yig'laganida yuragi uvishib ketar, noqulay holatga tushsa-da, ovutar "Hali ko'rmagandek bo'lib ketasiz" degan gapni tez-tez takrorlardi. Bir kuni nonushta paytida chidabi turolmadi, ko'nglidan kechayotgan o'yari tiliga ko'chdi.

- Bir-birimizga qarindoshdek yaqin bo'lib qolidik, so'raganning aybi yo'q, shaharda bir qadam yo'l bo'lsa, shifoxonada yotganingizga anche bo'lsa-da, Jasurjonining kelinchagi biror mar'a xabar olmadi-yu? - dedi.

- Shifokor, ishlari juda ko'p, - dedi u xo'rsinib bunga javoban.

- Ha, ha. Hozirgi yoshlarning tashvishlari tuga-

maydi, - deb qo'ydi.

Opa ish qanchalik ko'p bo'lmashin, fursat topish mumkin, degan o'y ko'nglidan kechsa-da,



ODAM GO'SHTI YEGANMISIZ?

Islomiy axloq me'yordanidan chekinish o'zimiga zarar keltirayotganini aytidim. O'sha, salom bermasam-da alik olingen voqeа rivoji ham bunga yana bir dalil bo'ldi.

- Salom bersang alik olmaydi, kesatig'iga o'laymi, - dedim boshqa hamkasbinga. Shu bilan boshlanib ketdi, "uning go'shtini yeishni boshladik" (Birodarining g'iybatini qilish uning go'shtini yeish bilan barobarligini aytmas ham yaxshi bilasiz).

Salom berish savob amalligini, uni kimga berishim muhimmasligini, qarshi tomon alik olmasligi amalim savobini kamaytirmasligini bilaman. Biroq takror aytaman, havoyi nafsimga ergashib shu ko'ydaman.

Siz-chi?..

O'z amalingiz haqida o'ylaysizmi yoki men kabi "odamxo'rlik" dan qu tulomlaysizmi? Birodarining xato-nuqsonlarini uning ortidan gapirishim g'iybat, o'zida yo'q amal-odatlarini boshqa birov bilan muhokama qilishim esa tuhmatligeni sira o'ylab ko'rmadim.

UNUTIB QO'YAMAN, AFUS...

Rost, unutib qo'yaman. Bo'limasa, namoz Islomning shiori, mo'min boshqalaridan ajarit turvuchi amal erkalinigini, Alloh taolo musulmonlarga imondan keyni namozni farz qilganini yaxshi bilaman.

Qiyomatda han bandalar eng avvalo, namozdan savol qilinishni, namozsiz boshqa ish-amallar qabul qilinmasligini, namozni esa qazo qilmay vaqtida o'qish farzligini (majburligini) tushuntirib o'tirmang. Ammo oddiy turmush tashvishlari bilan o'ralashib yoki arzimas sabablar tuyfali namozlarni osongina qoldirib yuboraveraman.

Buning ortidan esa Qur'on karimda «Bas, qachon uylarga kirsangizlar, bir-birlaringizga Alloh huzuridan bo'lgan muborak pokiza salomni aytinlar (yar'a), «Assalomu alaykum», denglar» (Nur, 61) tarzida bayon etilganini unutib qo'yaman.

Umuman, Islomda salomlashuv ibodat